

GLOBALLASHUV DAVRIDA KAM SONLI TILLARNING SAQLANISHI VA YO'QOLISH XAVFI

Abduxalilova Shodiyabonu Abduqodir qizi

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti Sharq filologiya fakulteti
Koreys tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi globallashuv jarayonida kam sonli tillarning yo'qolib borish muammosi tahlil qilinadi. Dunyoda mavjud tillarning katta qismi yo'qolish xavfi ostida ekani, bu jarayon insoniyatning madaniy va intellektual merosiga jiddiy tahdid solayotgani yoritiladi. Maqolada UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida tillarning yo'qolish darajasi va sabablari ko'rib chiqiladi. Tilning yo'qolish sabablari, xususan, avlodan-avlodga o'tishning to'xtashi, ta'lim tizimidagi ustuvor tillar ta'siri hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yo'qolib borayotgan tillarni saqlab qolish usullari va ularning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar. yo'qolib borayotgan tillar, globallashuv, madaniy meros, til siyosati, lingvistik xilma-xillik, tilni saqlash, UNESCO, avlodlararo uzatish, tilshunoslik, til revitalizatsiyasi.

Аннотация. Цель данной статьи — анализ проблемы исчезновения малочисленных языков в условиях глобализации. В статье подчеркивается, что значительная часть языков мира находится под угрозой исчезновения, что представляет серьезную угрозу культурному и интеллектуальному наследию человечества. На основе данных ЮНЕСКО и других международных организаций рассматриваются уровни и причины исчезновения языков. В частности, анализируются такие факторы, как прекращение межпоколенной передачи языка, доминирование ведущих языков в системе образования, а также социально-экономические условия. Кроме того, обосновывается важность сохранения исчезающих языков и рассматриваются способы их возрождения.

Ключевые слова: исчезающие языки, глобализация, культурное наследие, языковая политика, языковое разнообразие, сохранение языка, ЮНЕСКО, межпоколенная передача, лингвистика, языковая ревитализация.

Abstract. The purpose of this article is to analyze the issue of the disappearance of minority languages in the context of globalization. It highlights that a significant number of the world's languages are under threat of extinction, posing a serious risk to humanity's cultural and intellectual heritage. Based on data from UNESCO and other international organizations, the article examines the levels and causes of language endangerment. In particular, it considers factors such as the interruption of intergenerational transmission, the dominance of major languages in education systems, and socio-economic influences. The article also substantiates the importance of preserving endangered languages and discusses possible methods for their revitalization.

Keywords: endangered languages, globalization, cultural heritage, language policy, linguistic diversity, language preservation, UNESCO, intergenerational transmission, linguistics, language revitalization.

Kirish. Tasavvur qiling, bir kun kelib biror tilning oxirgi so'zlovchisi vafot etadi va u bilan birga hech kim bilmaydigan hikoyalar, qo'shiqlar va dunyoni ko'rish usullari

ham yo'qolib ketadi. Bu hozir ham sodir bo'lmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, hozirda mavjud bo'lgan 8324 ta tildan taxminan 7000 tasi faol qo'llaniladi. Biroq, ta'lim tizimlari va davlat boshqaruvidagi atiga bir necha yuz yil til muhim rol o'ynaydi va raqamli dunyoda 100dan kam til ishlatiladi. Shu sababli insoniyat har ikki haftada bitta tilni va u bilan birga madaniy hamda intellektual merosini ham yo'qotadi. Bu haqda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotida keltirilgan. 2100-yilga borib esa dunyodagi 7000ga yaqin tillarning yarmi esa yo'qolishi mumkin. Globallashuv esa bu jarayonni tezlashtiradi – go'yoki zaif ildizlarni tortadigan kuchli oqim singari.

Asosiy qism. UNESCO Bosh direktori Koichiro Matsuura ta'kidlagandek: "Tilning yo'qolishi madaniy nomoddiy merosining ko'plab shakllarining yo'qolishiga olib keladi, ayniqsa an'ana va og'zaki ifodalar kabi bebaho merosning yo'qolishiga sabab bo'ladi – bu esa she'rlar, afsonalar, ertaklar, hazillarni o'z ichiga oladi. Tillarning yo'qolishi insoniyatning biologik xilma-xillik haqidagi bilimlarini ham kamaytiradi, chunki tillar tabiat va koinot haqidagi ko'plab bilimlarni yetkazadi."

Qanday qilib tillar yo'qolib borayotgan tilga aylanadi?

Tilning yo'qolish xavflaridan biri avloddan-avlodga o'tishi to'xtashi, uni gapiradigan odamlar soni tobora kamayganda, ayniqsa bolalar uni asosiy til sifatida o'rganmay qo'yganda yuz beradi. Bunday bolalar keyinchalik bu tilda uyda kamroq gaplashadi va uni o'z farzandlariga ham o'rgatmaydi. Chunki ta'lim tizimida ingliz tili yoki boshqa kuchli tillar ustunlik qiladi. Boshqa tillar esa turli sabablar tufayli asta-sekin yo'qoladi. Aholi sonining ko'payishi va sanoatlashtirishning tarqalishi tillarning yo'q bo'lib ketishining asosiy sabablari hisoblanadi. Ko'pincha, rivojlanayotgan infratuzilma ilgari yakkalanib qolgan jamoalarni bog'laydi va odamlarni tez o'zgarib borayotgan dunyoda yangi hayot qurishga moslashgan sari an'anaviy til bilan keng tarqalgan til o'rtasida tanlov qilishga majburlay boshlaydi.

Ba'zan tillar bir muncha vaqt birga mavjud bo'ladi, ammo oxir-oqibat ular akademik sohada, tijoratda va madaniyatning boshqa shakllarida amalda muloqot usuliga aylanadi. Oxir-oqibat, keksa yoshdagilar yo'q bo'lib ketadi va yosh avlodlar qulayroq tildan tobora ko'proq foydalanadilar

UNESCO tillarning yo'qolish jarayonini 5 bosqichga ajratadi:

Oq (zaiflashgan) – hali bolalar o'rganadi, lekin asosan uyda ishlatiladi

Sariq (aniq xavf ostida) – bolalar deyarli o'rganmaydi

To'q sariq (jiddiy xavf ostida) – faqat kattalar gapiradi

Qizil (tanazzul yoqasida) – faqat qariyalar tushunadi

Qora (yo'qolgan) – umuman so'zlashuvchi qolmagan

Yo'qolib borayotgan tillarga misollar

1) Hawaiian – juda xavf ostida

Bir paytlar keng tarqalgan bu til AQSh tomonidan bosib olingandan keyin taqiqlangan. Hozir esa qayta tiklanmoqda.

2) Potawatomi – juda xavf ostida

Hozir atigi bir nechta ona tilida so'zlashuvchi qolgan.

3) Yiddish – xavf ostida

Ilgari millionlab odamlar gapirgan, hozir esa soni keskin kamaygan.

4) Ume Saami – juda xavf ostida

Hozir atigi 10 ga yaqin so'zlashuvchi qolgan.

5) Cornish – qayta tiklanayotgan til

Butunlay yo'qolgan, ammo hozir qayta o'rganilmoqda

Whole Earth ma'lumotlariga ko'ra, tillar xavotirli darajada yo'qolib bormoqda - yo'qolib ketish xavfi ostida turgan sutemizuvchilarnikidan ikki baravar ko'p va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan qushlarnikidan to'rt baravar ko'p. Har bir til o'ziga xos qadriyat bo'lib, noyob xalq, madaniyat va tarixni ifodalaydi. Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan tillarni iloji boricha tezroq aniqlash va juda kech bo'lishidan oldin ularni saqlab qolish choralari ko'rish muhimdir.

Nima uchun bu tillar muhim? Nazariy jihatdan, agar butun dunyo faqat bitta tilda gaplashsa, bu osonroq tuyulishi mumkin. Odamlar o'rtasida tushunmovchiliklar kamroq va ehtimol undan ham ko'proq hamkorlik bo'lar edi. Biroq, tilning qiymatini bilib bo'lmaydi. Tilni saqlab qolish uchun avlodlar o'rtasidagi o'tishni ta'minlash juda muhimdir. Tilshunoslar so'nggi so'zlashuvchilarni yozib olib, lug'at va grammatika yaratadi. Bu tilni kelajak uchun saqlab qoladi. Shu bilan tilni biladigan kishi bir o'quvchiga o'rgatadi keyin u ham boshqalarga o'rgatadi. Shunday qilib yoshlar tilni doimiy ravishda o'rganishlari va uni farzandlariga o'tkazish uchun yetarli darajada ravon bo'lishlari mumkin.

Xulosa. Tillarning yo'qolishi nafaqat aloqa vositasining yo'qolishi, balki insoniyatning boy madaniy va intellektual merosining kamayishiga olib keladi. Har bir til o'zida noyob dunyoqarash, tarix va bilimlarni mujassam etadi. Shu sababli, yo'qolib borayotgan tillarni saqlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada avlodlararo uzluksiz uzatishni ta'minlash, ta'lim tizimida mahalliy tillarga e'tibor qaratish hamda ilmiy hujjatlashtirish ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina shu yo'l bilan kelajak avlodlarga til boyligini yetkazish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations. (2025, February 21). Language preservation and the risk of extinction. <https://news.un.org/ru/story/2025/02/1461531>
2. Uz24. (2025, February 23). Til va uning jamiyatdagi ahamiyati. <https://uz24.uz/uz/articles/til-25-2-23>
3. Evans, N. (2009). Endangered languages, endangered thought (p. 3).
4. Sterling, I. (2022, June 17). Endangered languages: What they are and how to save them.
5. Anderson, M. (2018, April 12). Why languages become endangered, and how we can keep them alive. Smithsonian.
6. Listen & Learn. (2014, October 30). Endangered languages at risk of disappearing.